

BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Shotirova Mahliyo Shosaid qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

E-mail: mshotirova@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ qobiliyatini o'stirish masalalariga e'tibor berilib, boshlang'ich sinf tarbiya fani darsi jarayonida qo'llaniladigan metodlar va yutuq va kamchiliklarga to'xtalib ularning echimiga tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, boshlang'ich ta'lim, kreativ qobiliyat, tarbiya fani, texnologiya, metod, axloq.

Аннотация: В данной статье уделено внимание вопросам развития творческих способностей учащихся начальной школы, даны рекомендации и выводы по их решению, акцентировано внимание на достижениях и недостатках методов, используемых в ходе урока естествознания начального образования.

Ключевые слова: духовность, просвещение, начальное образование, творческие способности, наука об образовании, технология, метод, этика.

Abstract: This article pays attention to the issues of developing the creative abilities of primary school students, provides recommendations and conclusions for solving them, and focuses on the achievements and shortcomings of the methods used during the natural science lesson in primary education.

Key words: spirituality, enlightenment, primary education, creativity, science of education, technology, method, ethic.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davr boshlandi. Xalqimizning madaniyati tarixini o'rganish mustaqillik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirishda tarixdan ko'p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun shubhasiz foydali ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi milliy manaviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun

zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qiladi.

Har bir xalqning o'z tarixi, o'tmishi bor. Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim-fozil, donishmand, adib, din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Albatta, turli an'analar, arxeologik yodgorliklar, buyumlar va boshqalarda ham xalq ma'naviyati yutuqlari ifodalanadi, lekin yozma adabiyot, qo'lyozmalar bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o'rganish, ularni hozirda nashr etish, targ'ib qilish, yubileylarini o'tkazish, madaniyat tarixini – ma'naviy boyligimizni chuqur bilish ishida nihoyatda muhim va katta rol o'ynaydi¹.

Bugun davlatimizning ta'lim tizimi, nihoyatda katta islohotlar markazini egallab turibdi. Hurmatli yurtboshimiz uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichini ham moddiy, ham ma'naviy tomonlarni modernizatsiya qilinishiga o'zi bosh qosh bo'lib, islohotlar etakchisi sifatida dunyo ommasining olqishlariga sazovor bo'lmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Dunyo pedagogika sohasining etuk olimlari bolaning bilim olishida eng muhim davr bu boshlang'ich ta'lim ekanligini hisobga olsak, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslar o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. "Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob bergan edi"².

Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2020-yil 30-sentabr.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I-jild – : "O'zbekiston", 2017, 146 bet.

o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlandi, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan¹.

USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ qobiliyatini rivojlantirishda tarbiya fanining qarashlari ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

NATIJALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimiga xos bo'lgan pedagogik, didaktik va o'quv-bilish muammolarini hal etishning eng samarali usullaridan biri o'qituvchining kreativlikka ega ekanligidir. Ya'ni amerikalik psixolog Abraxamu Maslou aytganidek, "yangi g'oyalar, ahamiyatli fikrlarning barqaror va kuchli oqimisiz hech qanday muvaffaqiyat va samarali natija haqida gapirishning hojati yo'q"² deb ta'kidlab o'tgan.

Kreativ qobiliyat haqida so'z yuritar ekanmiz avvalo, kreativlik haqida qisqacha tushunchalarga ega bo'lsak.

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini tariflagan³.

Kreativlik qadimiy lotin tilidagi "creatio" so'zi asosida hosil qilingan bo'lib, "yaratmoq" degan ma'noni beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kreativlik shaxsning ijodiy qobiliyatini ifodalovchi tushunchadir. Biroq aynan lotin tilidagi "creative" so'zi

¹ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2-bob, 5-modda.

² Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

³ Пугасовна, Т. Г. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI. PEDAGOG, 5(6), 599-604.

“yaratuvchi”, “ijod qiluvchi” kabi ma’nomalarni beradi, shuning uchun qator mutaxassislar (Antonov D. A. Drozina V. V. Lerner I. Ya.) “ijodkor” va “kreativ” shaxslar o‘rtasida ma’lum darajada farq mavjud deb hisoblaydilar¹.

Bizda mavjud an’anaviy tasavvurlarga ko‘ra, “ijodkor shaxs” deganda o‘z faoliyatlari asnosida turli namunalar yaratuvchi insonlar, ya’ni adabiyot, san’at, tasviriy san’at, amaliy san’at namoyandalari tushuniladi. Kreativlik esa bevosita mehnat jarayonidan iborat faoliyatga innovatsiyalar joriy etuvchi, texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan g‘oyalarni taklif qiluvchi insonlarga xos bo‘lgan qobiliyatdir.

Bugun O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning vatanimiz nafaqat sharq, balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklardan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Darhaqiqat, moddiy va ma’naviy madaniyatimiz nafaqat o‘z xalqimiz, balki Yevropa, Osiyo, Arab mamlakatlarini ham o‘ziga jalb qilib, qiziqish uyg‘otmoqda va bu umuminsoniy qadriyatlarga qo‘shilgan salmoqli hissadir. Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni etishtirib beradi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash².

Bugungi kunda kreativlikka turli sohalar, ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar, tijorat, madaniyat nuqtai nazaridan ta’rif berish orqali bu tushunchaning talqinlari o‘rtasida tafovutlar yuzaga keldi. Bizningcha, kreativlikning eng ko‘p qo‘llaniladigan ta’rifi quyidagichadir: “kreativlik – original va o‘rinli g‘oyalarni, ularning samaradorlik darajasini o‘rganmay turib taklif qilishdan iboratdir”.

¹ OTAMURODOVA, S. Q. (2023). “KREATIVLIK” TUSHUNCHASI VA TALABANING KREATIVLIK POTENSIALINI AMOYON QILUVCHI ALOMATLAR. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(10), 35-39.

² Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova Sh., Mavlanov M., To‘ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O‘quv metodik qo‘llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.

Ta'limdagi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijodiy qobiliyat shaxsning ichki potentsiali sifatida yuzaga chiqariladi va izchil ravishda tarbiyalab boriladi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi xatti-harakatlarida potentsial sifatidagi ijodiy qobiliyati mavjudligini ko'rsatuvchi bir qator alomatlar namoyon bo'ladi.

Bu alomatlar quyidagilardan iborat:

- bilishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya;
- bilish maqsadining ko'pqirrali va har taraflamaligi;
- bilish obyektini o'rganishga bo'lgan noandazaviy yondashuv;
- mustaqil bilim olish va tadqiqotchilik ko'nikmalari;
- bilish faoliyati davomida qo'lga kiritilgan natijalardan olinadigan ijobiy emotsiyalar;
- umumfikir va umumiy yondashuvga qo'shilmaslik kayfiyati (antikonformizm);
- o'quv-bilishning turli usul va ko'rinishlarini egallashga intilish¹.

Shunga ko'ra, o'quvchilarning kreativlik potentsialini namoyon qiluvchi alomatlar quyidagilarni kiritish mumkin:

-ijodiy tafakkur (mantiqiy fikrlash, mustaqil evristik yondashuv, har taraflama tahlil);

-emotsional qiziquvchanlik (yangilikka intilish, o'z faoliyatidan qoniqmaslik, va shu kabilar);

-originallikka intilish (masalaga ijodiy yondashuv, "har qanday muammoning boshqa yechimi, albatta mavjud", deb hisoblash kayfiyati);

-tiniq tasavvur (faoliyat yoki bilish obyektining real xossalarini to'liq tasavvur qilish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olish, tashxislash va bashorat qilish ko'nikmalarining shakllanganligi);

-intuitsiya (ichki sezgi);

-emotsional barqarorlik (refleksiya, empatiya, ichki boshqaruvning barqarorligi);

-yumor hissi (nutqiy-kommunikativ muloqotlarda aforizmlardan o'rinni foydalanish, hazildan mohirona foydalanish);

-ijobiy motivatsiya (chigal, nostandart masalalar, muammoli vaziyatlarni hal etishga ichki qiziquvchanlik, faoliyat natijasidan katta ijobiy emotsiya olish va shu kabilar);

-antikonformizm (andazaviy yondashuvlar, qolipdagi fikrlar, ma'lum masala yechimi bo'yicha qabul qilingan stereotiplardan qochish).

MUNOZARA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativ qobiliyatlarini o'stirish jarayonida "Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ham o'rganishi muhim ahamiyatga ega. Bu fanning metodlari Pedagogika fanining metodlaridan olingan bo'lsa-da, biroq ular mazkur fan asosida kengroq ma'noda tushuniladi. Chunki tarbiya jarayonining xarakteri shuni taqozo etadi.

¹ Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste'dod. 2010. 141 bet.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.

"Boshlang'ich ta'limda Tarbiya fani" metodlarini idrok etishda milliy va xalqparvarlik tamoyillariga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Mamalakatimizda ta'sis etilgan "Tarbiya" fanining eng asosiy ilmiy-tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga oid pedagogik merosni o'rganish;
- tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirish;
- tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;
- tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasining bo'lishi.

Biroq ushbu metodlardan "Tarbiya" fani ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilashda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

a) tarbiyaga oid pedagogik meros o'rganilganda qadimdan kelayotgan tarbiya g'oyalari, usullari, tizimi va uni amalga oshirish yo'llariga alohida e'tibor beriladi;

b) tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirishda tarbiyaviy yondashuvlar, ularning amaliy tajribadan o'tganligi va bugungi kun talabalariga javob berishi masalalariga diqqat qilinadi;

v) tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirishda aynan tarbiya masalasiga yo'naltirilgan davlat standartlari, malaka talablari va murabbiy-o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablarni o'rganish va ularga amal qilish masalalariga e'tibor beriladi;

g) tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasiga ega bo'lish uchun talabalik davridayoq tarbiya asoslari, metodologiyasi, didaktikasi va amaliyotini o'zlashtirish bilan pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amaliy ko'nikmalar bilan qurollanishga diqqat qilinadi.

XULOSA

"Tarbiya" fanini o'qitishda sharq mutafakkir allomalari jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shganliklari bilan bir qatorda – o'z faoliyatlarida insonni ulug'lash, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, olijanoblik, do'stlik, rostgo'ylik, kamtarlik, saxiylik, mardlik, muruvvatlilik, odob, axloq, ilm-ma'rifat haqida ilgari surgan g'oyalarini singdirish katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy bunday deydi: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar

yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

“Tarbiya” darslarida buyuk mutafakkirlarimiz merosini o‘rganish beqiyos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlar qalbiga nur, ongiga ziyo bo‘lib kirib, ona Vatanimiz O‘zbekistonning fayz-baraka yurti sifatida gullab yashnashiga munosib hissa qo‘shayotgan yoshlar buyuk ajdodlarimiz yaratgan boy merosni yanada puxtaroq o‘rgansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga etkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Eng muhimi, farzandlarimizni sog‘lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an’analariga sodiq bo‘lishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2020-yil 30-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I-jild – .: “O‘zbekiston”, 2017, 146 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2-bob, 5-modda.
4. Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
5. Ilyasovna, T. G. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING ROLI. PEDAGOG, 5(6), 599-604.
6. OTAMURODOVA, S. Q. (2023). “KREATIVLIK” TUSHUNCHASI VA TALABANING KREATIVLIK POTENSIALINI AMOYON QILUVCHI ALOMATLAR. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(10), 35-39.
7. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To‘ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O‘quv metodik qo‘llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
8. Ishmuhammedov R. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: Iste‘dod. 2010. 141 bet.